



## 2019 yilning yanvar - iyul oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **10872,3 mlrd. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **95,2 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **1938,1 mlrd. so'mni**, o'sish sur'ati **105,8 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **17,8 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **20,2 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - iyul oylarida viloyat korxonalaridan 10872,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 88,4 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 99,6 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashda – 108,7 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 99,1 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar - iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4931,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 45,4 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan neft qazib olish hajmining – 6,6 % ga, gaz kondensati – 0,9 %, tabiiy gaz – 3,3 % ga, chaqiq tosh – 28,7 % ga, qum – 17,6 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<b>2018 yil yanvar - iyulda ishlab chiqarilgan</b>	<b>Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari</b>	<b>2019 yil yanvar - iyulda ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
	<b>Tabiiy gaz, mln. kub metr</b>		
19687,3		19033,6	96,7 ↓
	<b>Gaz kondensati, ming tonna</b>		
819,0		811,3	99,1 ↓
	<b>Neft, ming tonna</b>		
331,3		309,4	93,4 ↓
	<b>Shag'al, ming tonna</b>		
100,3		115,0	114,6 ↑

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2019 yilning yanvar - iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4461,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 41,0 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan polietilen – 2,3 % ga, ip-kalava – 24,9 % ga, plastmassa quvurlar – 12,4 % ga oshganligini, paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan) va alkogol ichimliklar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar - iyulda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar - iyulda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
72851,0	<b>Paxta tolasi, tonna</b> 	30080,0	41,3 ↓
16763,3	<b>O'simlik yog'i (tozalangan), tonna</b> 	9342,1	55,7 ↓
11031,0	<b>Ip-kalava, tonna</b> 	13776,0	124,9 ↑
2283,0	<b>Plastmassa quvurlar, tonna</b> 	2565,0	112,4 ↑

2018 yil yanvar - iyulda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar - iyulda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
1576,0	<b>Alkogol ichimliklar, ming. litr</b> 	1518,4	96,3 ↓
75,1	<b>Polietilen, ming tonna</b> 	76,8	102,3 ↑



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.***

2019 yil yanvar - iyul oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1382,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining

12,7 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 95,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning 101,9 % ga, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo`qotish va utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa 101,1 % ga oshganligi kuzatildi.



### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


2019 yilning yanvar - iyul oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1938,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 17,8 % ni tashkil etdi.

### ***2019 yilning yanvar - iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



2019 yil yanvar - iyul oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 57,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 42,1 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,3 % tashkil etdi.


**Yanvar - iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**



**Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,5 %), G'uzor (19,1 %), Qarshi shahri (12,4 %), Nishon (10,6 %) tumanlari, Qarshi (4,2 %) va Koson (3,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2019 yilning yanvar - iyul oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



Shu bilan birga eng kam ulush Mirishkor (1,1 %), Chiroqchi (1,2 %), Kasbi (1,2 %), Qamashi (1,4 %), Shahrisabz (1,5 %) va Yakkabog' (1,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmida Muborak tumani 3860,3 mlrd. so'mni, G'uzor tumani 2074,4 mlrd. so'mni, Nishon tumani 1157,3 mlrd. so'mni va Qarshi shahri 1347,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar - iyul oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi**






**2019 yilning yanvar - iyul oylarida shahar va tumanlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2018 yil yanvar - iyul oylariga nisbatan, % da**



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo`yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida Dehqonobod tumanida (2018 yil yanvar – iyul oylariga nisbatan 128,5 %), Yakkabog' (121,9 %), Shahrisabz shahrida (117,4 %), Kitob (114,4 %), Qarshi (107,8 %) va Chiroqchi (106,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



**2019 yil yanvar - iyul oylarida shahar va tumanlar bo`yicha istemol mollarining o`shish sur`atlari, 2018 yil yanvar - iyul oylariga nisbatan, % da**




Iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Chiroqchi tumanida (2018 yil yanvar - iyul oylariga nisbatan 107,4 % ga), Nishon tumanida (107,3 % ga), Kitob tumanida (107,1 % ga), Muborak tumanida (107,1 % ga) va Kasbi tumanida (107,1 % ga) oshdi.

Shuningdek, Iste`mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste`mol tovarlari hajmida 31,9 %), Koson (9,2 %), Shahrisabz (7,9 %) tumanlarida va Shahrisabz shahrida (7,4 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (45314,7 ming so'm), G'uzor tumanida (10365,7 ming so'm), Nishon tumanida (7746,1 ming so'm) va Qarshi shahrida (4954,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3369,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**2019 yilning yanvar – iyul oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**




### ***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 20,2 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (90,5 %), Qamashi (87,3 %), Shahrisabz tumanida (80,3 %), Yakkabog` tumanida (78,7 %), Qarshi (61,3 %) va Shahrisabz (49,8 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,3 %), G'uzor tumanida (2,3 %), Nishon tumanida (4,7 %) va Dehqonobod tumanida (10,6 %) kuzatildi.


### ***2019 yilning yanvar - iyul oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da***



## **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 3 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 678 tasi Qarshi shahrida, 402 tasi Kitob tumanida, 275 tasi Shahrisabz shahrida, 294 tasi Yakkabog` tumanida, 255 tasi Qarshi tumanida, 242 tasi Chiroqchi tumanida, 179 tasi Qamashi tumanida, 161 tasi Shahrisabz tumanida, 159 tasi Koson tumanida, 140 tasi G`uzor tumanida, 107 tasi Kasbi tumanida, 63 tasi Muborak tumanida, 112 tasi Nishon tumanida, 62 tasi Dehqonobod tumanida va 72 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

### **2019 yil 1 avgust holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



Joriy yilning yanvar - iyul oylarida viloyatda 809 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 100 tadan ortiq Qarshi shahriga, 80 tadan ortiq Chiroqchi va Yakkabog` tumanlariga, 70 tadan ortiq Kitob va Qarshi tumanlariga, 60 tadan ortiq Shahrisabz tumaniga, 50 tadan ortiq Nishon tumaniga va Shahrisabz shahriga, 30 tadan ortiq Kasbi, Qamashi va G`uzor tumanlariga, 20 tadan ortiq Koson va Mirishkor tumanlariga, 10 tadan ortiq Dehqonobod va Muborak tumanlariga to'g'ri keladi.